

UMUMIY PEDAGOGIKA TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI SIFATIDA

HOTAMOVA RUXSHONA PANJIYEVNA

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Boshlang'ich ta'lim boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

2-kurs pedagogikasi fanlari bo'yicha (phd)

Norqobilova Rayhona Davlatova

Annotatsiya: Mazkur maqolada unda pedagogika fanining mohiyati, maqsadi asosiy kategoriyalari va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan. tarbiya jarayonida shaxsning ijtimoiy faolligini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida barkamol insonni tarbiyalash masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Umumiy pedagogika, ta'lim, tarbiya, pedagogika nazariyasi, o'qituvchi shaxsi, o'quvchi faoliyati, pedagogik texnologiya, innovatsion yondashuv, shaxs kamoloti, milliy qadriyatlar, barkamol inson, ta'lim tizimi, tarbiya jarayoni.

Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlool g'oyalari asosida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi. Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati - uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborini qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ko'p sonli fanlarning ta'limni o'rganishdagi ijtimoiy fenomeni sifatidagi hissasi shubhasiz bebaho va zarurdir. Biroq bu fanlar insonning kundalik o'sish va rivojlanish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan, o'qituvchi bilan o'quvchining o'z rivojlanish davridagi o'zaro munosabatlari va unga mos institutsional struktura bilan bog'liq ta'limning tub jihatlariga daxli qilmaydi va bu tamomila haqqoniy, chunki maxsus jihatlarni o'rganish obyekti (ta'lim) ning shunday qismini aniqlaydiki, buni maxsus fan pedagogika o'rganishi kerak. Pedagogika - bu aniq maqsadlar asosida maxsus ijtimoiy institutlar (oila, ta'lim va madaniy tarbiyaviy muassasalar) da tashkil etilgan aniq yaxlit pedagogik jarayon sifatidagi ta'limdir. Pedagogika bu holda o'zini pedagogik jarayon (ta'lim)ning mohiyati, qonuniyatlari, tendensiyalari va rivojlanish istiqbollari

o'rganuvchi fan sifatida namoyon etadi. Shu asosda pedagogika uni tashkil etining nazariya va texnologiyalarini, pedagog faoliyati (pedagogik faoliyat) ning shakli va rivojlantirish metodlarini va o'quvchilarning turli ko'rinishdagi faoliyatlarini, shuningdek ularning o'zaro munosabatlaridagi strategiya va usullarini ishlab chiqadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati asoschilari, taniqli ma'rifatparvarlar – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Rahmatullayev, Abdurauf Fitrat, Ishoqxon Ibrat va boshqalar aholi orasida nafaqat murabbiy, balki ma'naviy yetuk inson sifatida ham nom qozondilar. Insoniyatning yashash uchun kurashishi va turli tabiiy ofatlardan himoyalaniish yo'lida olib borgan harakatlari tarbiya g'oyalarining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlarning guruh-guruh bo'lib hayot kechirishi sababli bolalarga tirikchilik o'tkazish yo'lidagi faoliyat (o'simlik mevalari, ildizlarini terish, hayvonlarni ovlash)ni tashkil etish borasidagi tajribalarni o'rgatish guruh a'zolari tomonidan birdek amalga oshirilgan. Pedagogika ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o'rganib borishini taqozo etadi, tarbiyaning tarkibiy qismlarini va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni ochib beradi. Shu asnodan ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari, yo'llarini ko'rsatib beradi. Pedagogika faniga tavsif berilganda "ta'lim", "tarbiya", hamda "ma'lumot" degan so'zlarni ishlatamiz. Bu so'zlar o'zaro bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Ularni pedagogikaning asosiy kategoriyalari deb nomlaymiz. Bularidan tashqari "o'qituvchi", "o'quvchi", "metod", "intizom", "jamiya", "irsiyat", "muhit", "direktor" kabi tushunchalar-nomlar mavjudki, bu haqida mavzular yuzasidan fikr yuritilganda alohida to'xtaymiz. Tarbiyaga oid g'oyalar eramizdan avvalgi VI asrda shakllanganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Keyingi davrlarda pedagogik g'oyalarning shakllanishida zardushtiylik ta'limoti, uning muqaddas kitobi "Avesto"da qimmatli fikrlar talqin etilgan. Kishilik tarixida islom ta'limotining tarbiya haqidagi g'oyalarning shakllanishida ahamiyati cheksizdir. Qur'oni Karim va hadisi shariflarda musulmon ahlining dunyoqarashi, falsafasi, ma'naviyati, axloqi, e'tiqodi, har tomonlama barkamolligi kabi insoniy sifatlarni shakllantirish yo'llari bayon qilingan. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalari. Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch

tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Pedagogika fanining asosiy tushunchasi shaxs kamoloti ni ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga sheriksha qaratilgan jarayonlarning ichki mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish. Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi. Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Ta'lim – o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilim olish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon. Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui. Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati. Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui. Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etadi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi. Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki pedagogika hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib uning umumiy mohiyati to'laqonli aniqlash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtayi nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud: Falsafa - shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatini hal etish masalalarini tahlil etishga imkon beradi. Iqtisod - ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va

zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi. Sotsiologiya - ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi. Etika - shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi. Estetika - shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi. Fiziologiya - o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarining inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni beradi. Gigiyena - o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularni jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi. Psixologiya - shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi. Tarix - pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasidagi g'oyalarni kelgusi avlodga uzatish uchun yo'naltiriladi. Madaniyatshunoslik - o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi. Tibbiy fanlar - shaxsning fiziologik-anatomik jihatdan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, muayyan nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishga ko'maklashadi. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari. Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi, shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yo'l torda o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish

zaruratini keltirib chiqaradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog‘liq. Ijodkor jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo‘lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir. Ayni vaqtda, O‘zbekiston Respublikasida pedagogik yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan jarayon bo‘lib, uning samarali bo‘lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir: muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi; ilmiy farazlarning to‘g‘ri shakllantirilganligi; vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to‘g‘ri belgilanganligi; tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv; tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to‘g‘ri hisobga olinganligi; tadqiqot natijalarini oldindan taxshirlash va uning natijalarini aytib o‘tish; Tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi. Pedagogika fani rivojlanishining hozirgi bosqichida alohida dolzarb metodologik masalalarni hal etish bilan chegaralanmasdan, xususiylar tizimi sifatida pedagogika fani metodologiyasini aniq belgilab olish zarur. Bu birinchidan, pedagogik nazariyalarning ishonchliligini ta’minlasa, boshqa tomondan metodologik bilimsiz pedagogik tadqiqotlarni samarali tashkil etish va o‘tkazish mumkin emasligini uqdiradi. Ijodiy jarayonda bugungi kunda pedagogika fani metodologiyasiga, uning predmetiga nisbatan turlicha yondashuvlar vujudga kelmoqda, ularning mohiyatini qisqacha tushuntirishga harakat qilamiz. Metodologiya alohida fan sifatida ikkita funktsiyani bajaradi: deskriptiv (ifodalovchi) va perskriptiv (me’yorlovchi). Birinchisi – ob’ektni nazariy jihatdan ifodalashni ko‘zlasa, keyingisi – tadqiqotchi uchun aniq mo‘ljall olishga shart-sharoit yaratadi. Bu ikki vazifaning mavjudligi pedagogika metodologiyasini ham ikki guruhga ajratishni taqozo etadi – nazariy va me’yoriy.

Me’yoriy asos quyidagi savollar doirasini qamrab oladi: pedagogikaning ob’yektiv bo‘limi nativiy jihatdan o‘zgaradigan boshqa shakllardan farqli tomonlarini ilmiy asoslash; fundamental ilmiy asoslarining nufuzlilikini aniqlash; tadqiqot metodlari va vositalarini

aniqlash; maxsus bilish metodlari va vositalarini tizimlashtirish; tadqiqot predmeti, maqsadi va vazifalarini doimiy ravishda belgilab borish; tadqiqot ob'yekti, predmetiga mazmuniy, ilmiy-amaliy ahamiyat; pedagogik tadqiqot ob'yekti tarkib amtiy ketma ketligi; pedagogik fanlar tizimi, ularning o'zaro aloqasi, umumiy metodologiyasi ham bevosita metodologiyaning me'yoriy asosini tashkil etadi. Falsafiy nuqtai nazardan metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish prinsiplari va usullari tizimi sanaladi, shuningdek, bu metodologiya predmetini - faoliyatni tashkil etish haqidagi nazariyani demakdir. Tadqiqot muammosi bo'yicha qabul qilingan direktiv va me'yoriy hujjatlar ham bevosita metodologiyaning me'yoriy asosini tashkil etadi. Ko'rinib turibdiki, bu ta'rifda ilmiy bilish va ilmiy tadqiqiy faoliyat qamrab olingan. Yoki ikki jihat – bilish va faoliyat birligi negizida ifodalangan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: Sharq, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining 2017–2021 yillarga mo'ljallangan beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi". – T.: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. PF-60-son Farmoni. – T.: O'zbekiston, 28.01.2022.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. – T.: O'zbekiston, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar tarbiyasida besh tashabbus. – T.: O'zbekiston, 2018.
6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016